

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”

Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti



Rektori

I. Madjidov

«10» 02 2026-yil

IKKINCHI VA UNDAN KEYINGI OLIY TA'LIM
BO'YICHA BAKALAVRIAT TA'LIM YO'NALISHLARI
UCHUN IJTIMOIIY ISHGA KIRISH FANIDAN IMTIHON
DASTURI VA BAHOLASH MEZONI
(ta'lim yo'nalishlarga mos fan bo'yicha)

Tuzuvchilar:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti kimyo fakulteti "Ijtimoiy ish" kafedrası professori, sotsiologiya fanlar doktori (DSc) N.M.Latipova

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti kimyo fakulteti "Ijtimoiy ish" kafedrası katta o'qituvchisi (PhD) Q.A.Axmedov

Taqrizchilar:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti kimyo fakulteti "Ijtimoiy ish" kafedrası dotsenti, sotsiologiya fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) X.O.Ziyayeva

O'zJOKU "Ijtimoiy gumanitar fanlar" kafedrası dotsenti, sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Q.N.Qayumov

Mazkur dastur Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti O'quv-uslubiy Kengashining 2026-yil __-____dagi __-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

KIRISH

Ijtimoiy ishga kirish fani bo'yicha ikkinchi va undan keyingi oliy ta'lim bo'yicha bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga kiruvchi abituriyentlar uchun tuzilgan imtihon dasturi oliy ta'lim tashkilotlarining "Ijtimoiy ishga kirish" fani dasturi asosida tuzilgan bo'lib, "Ijtimoiy ishga kirish" va "Ijtimoiy ish tarixi va xorijiy tajriba" fanlari abituriyentlarning ko'nikma va malakalarini aniqlashda foydalaniladi.

Abituriyentlarning mutaxassislik to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lishi, fanning mazmun mohiyati, o'ziga xosligi, ijtimoiy ishning etik me'yorlari, ijtimoiy ishda tadqiqot metodlari, shuningdek ijtimoiy sohadagi nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llay olishi bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Fanning maqsadi va vazifalari

Ijtimoiy ishga kirish fani bo'yicha tuzilgan ushbu dastur abituriyentlarning shu sohada bo'lgan qiziqishi, bilim darajasini belgilash maqsadida ishlab chiqilgan.

Mazkur dasturning asosiy vazifasi Ijtimoiy ish kirish fanining ijtimoiy ish va ijtimoiy ta'minot mohiyati, ijtimoiy ishning mohiyati va o'ziga xos xususiyati, ijtimoiy ishning nazariy asoslari, ijtimoiy ishning odob va axloq muammolari, ijtimoiy ishning yo'nalishlari, ijtimoiy ishchining funksiyalari va roli kabi mavzulari asosida tuzilgan bo'lib ijtimoiy ishga kirish fanini o'zlashtirishni taqozaga etadi.

Imtihonda abituriyentlar, jamiyatning ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy masalalarining mohiyati va xususiyatlarini, davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishlarini, ijtimoiy ishning o'ziga xos faoliyat turi sifatidagi xususiyatlarini, ijtimoiy ishning etik me'yorlari va qadriyatlarini, ijtimoiy ish nazariyalarini ijtimoiy ishchi tomonidan amaliy faoliyatga tatbiq qilish orqali bilish, ijtimoiy ishda tadqiqot metodlari haqida mantiqiy fikr-mulohaza yuritish olishlari talab etiladi.

Abituriyentning bilimiga qo'yiladigan talablar

Ijtimoiy ishga kirish fani bo'yicha Ijtimoiy ishga kirish fanining 2025-2026 o'quv yili imtihon dasturi bo'yicha "Ijtimoiy ishga kirish" va "Ijtimoiy ish tarixi va xorijiy tajriba" kimyo fanlarining har biriga talablar qo'yiladi:

"Ijtimoiy ishga kirish" fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida abituriyent:

- Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta'minot mohiyati. Fanning tuzilishi, maqsadi, kutilayotgan natijalar. Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta'minotni: tushuncha va istiqbollari. Ijtimoiy ta'minot: o'tmish va hozirgi zamon. Ijtimoiy ta'minotni ijtimoiy ish bilan aloqadorligi. Ijtimoiy farovonlik asoslari. Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari. Turli madaniyatlarda xayriya an'analari. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash. Homiylik. Filantropiya. Ijtimoiy ish institutsionalizatsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy zaminlari. Ijtimoiy ishning paydo bo'lishining tarixiy asoslari. Ijtimoiy ishning rivojlanish bosqichining xususiyatlari. Ijtimoiy ta'minot haqida G'arb mamlakatlarda qabul qilingan qonunlar. Aholini aniq guruhlari haqida g'amxo'rlik.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot. Ijtimoiy ishni vujudga kelishi va rivojlanishi. Chet el olimlarni ijtimoiy ishning rivojlanishdagi hissasi. Ijtimoiy ishda tadqiqotlar. Ijtimoiy ishning mohiyati va o'ziga xos xususiyati. Ijtimoiy yordamning mohiyati va turlari. Ijtimoiy ish vujudga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy sabablari. Ijtimoiy ish kasb sifatida. Ijtimoiy ish fan va o'quv fani sifatida. Ijtimoiy ish obyekti va predmeti. Ijtimoiy ishning xalqaro ta'rif. Ijtimoiy ishning nazariy asoslari. Nazariya va ijtimoiy ish nazariyalarini amaliyotga ta'siri. Ijtimoiy muammolarni tushunish Konseptual asoslari. Ijtimoiy ish nazariyasining asosiy turlari: psixologik, ijtimoiy, kompleks, mumtoz va zamonaviy. Ijtimoiy ishning ekologik va tizimli modellari. Ijtimoiy ishda xulq-atvor nazariyasi. Ijtimoiy ishda psixodinamik nazariya. Kuchli tomonlar nazariyasi va resurslarni taqsimlash. Ijtimoiy ishda muammoli-mo'ljalli nazariya va krizis intervensiya. Ijtimoiy ishning odob va axloq muammolari. Ijtimoiy ishning asosiy qadriyat va prinsiplari: insoniy qadr-qimmat, ijtimoiy adolat, insoniylik, yaxlitlik, kompetentlik. Ijtimoiy ish etikasi: prinsiplar va standartlar. Ijtimoiy ishchining etik-professional kodeksi. Ijtimoiy ishda etik dilemmalar: Ijtimoiy adolat va xilma-xillik. Ijtimoiy ish amaliyotida diskriminatsiya qilinmaslik tamoyili. Stereotiplar, xurofotlar va noto'g'ri (xato) tushunchalar. Diskriminatsiya va antidiskriminatsiya tushunchasi. Insonlarni turli belgilar bilan diskriminatsiya qilish: jinsiy, etnik, milliy, diniy, salomatlik holatiga ko'ra, moddiy, professional mavqeyi. Individual, guruhli, tashkiliy darajada ijtimoiy adolatsizlikni bartaraf etish. Ijtimoiy ishning yo'nalishlari. Ijtimoiy ishchining funksiyalari va roli. Ijtimoiy ish yo'nalishi va mijozlar. Ijtimoiy ishchilarning huquq va majburiyatlari. Ijtimoiy ish rolni ijro etish sifatida. Ijtimoiy ishchining funksiyalari va roli. Ijtimoiy ishchining roli: xizmat sohalari brokeri, ijtimoiy va moslashuv malakalari o'qituvchisi, maslahatchi, keys-menejment, mehnat hajmi og'irligi menejmenti, hamkasblar malakasini oshirish tashkilotchisi, administrator (boshqaruvchi), ijtimoiy o'zgarishlar agenti, o'z ishining mutaxassisi. Ijtimoiy ishda bilish va qadr-qimmat, bajara olish. Ijtimoiy himoya tizimida tashkilot va muassasalar.

“Ijtimoiy ish tarixi va xorijiy tajriba” fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida abituriient:

- “Ijtimoiy ish tarixi va xorijiy tajriba” o'quv fani sifatida. “Ijtimoiy ish tarixi va xorijiy tajriba” fanning predmeti va vazifalari. Ijtimoiy yordam tushunchasi. Xayriya va yordam ko'rsatish. Yordamning ochiq va yopiq tizimlari. Yordamning turlari (jamoaviy, xususiy, guruhli, davlat tomonidan yordam). Ijtimoiy yordamning asosiy turlari. Ijtimoiy yordam ko'rsatishning umumiy tamoyillari va yondashuvlari. Ijtimoiy ish rivojlanishini davrlashtirish. Ilk sivilizatsiyalarda xayriya g'oyalarning vujudga kelishi. O'rta asrlarda jamoaviy xayriya. Xayriya va diniy e'tiqod. Islom dinida ijtimoiy yordam masalalari. Islom dinida ijtimoiy himoya. Zakot, ehson va sadaqa. Chet elda ijtimoiy ish asoslari. Ijtimoiy ish institutsionalizatsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy zaminlari. Tashkillashtirilgan xayriya. Ijtimoiy ishchilar maktablarining vujudga kelishi va rivojlanishi. Ijtimoiy xizmat ishchilarini tayyorlash. Chet ellarda ijtimoiy ishchilarning faoliyatining amaliy sohalari. Sotsial o'zaro harakat tushunchasi. M.E.Richmondning ijtimoiy ishning rivojlanishdagi hissasi. Ijtimoiy ishning

diagnostik va funksional maktablari: umumiy va o'zga xos tomonlari. Ijtimoiy ishning zamonaviy konsepsiyalari. Ijtimoiy ishning zamonaviy rivojlanish bosqichining xususiyatlari. Ijtimoiy ishning xorijiy modellari. Ijtimoiy ishning sotsial-demokratik modelining mohiyati va mazmuni. Bismark modelining mohiyati va mazmuni. Beverij modelining mohiyati va mazmuni. Liberal modelning mohiyati va mazmuni. Neokonservativ modelning mohiyati va mazmuni. XX asr ijtimoiy ishini rivojlantirishning asosiy strategiyalari. Ijtimoiy ish sohasidagi AQSH ijtimoiy doktrinalari. Ijtimoiy himoyaning "amerikacha" usuli. AQSHda ijtimoiy ta'minotning asosiy shakllari. Moddiy yordam dasturlari. Ijtimoiy sug'urta dasturlari. Kambag'allik chegarasi muhtojlik mezon. Ijtimoiy ko'mak. AQSHda xususiy sug'urtalash. Yevropa va AQSH olimlarining ishlarida ijtimoiy yordam g'oyalari ishlab chiqish. AQSH va Yevropada ijtimoiy ishning institutsional asoslari. Liberalizm falsafasi va amaliyoti va ilmiy xayriya yondashuvlarining paydo bo'lishi. Uyushirilgan xayriya ishlari Buyuk Britaniyada ijtimoiy ishning professionallashuvining zaruriy sharti sifatida. Buyuk Britaniyada ijtimoiy ishning shakllanishi va rivojlanishining asosiy tendensiyalari. XX asr boshlarida kasbiy ijtimoiy ish shakllanishining ijtimoiy konteksti. Buyuk Britaniyada. Tibbiyotda ijtimoiy ish. Psixiatriyadagi ijtimoiy ish. Bolalar va yoshlar bilan ijtimoiy ish. Tuzatish sohasidagi ijtimoiy ish. Oilalar bilan ijtimoiy ish. Buyuk Britaniyada ijtimoiy ishda integratsiya jarayonlari.

Imtixon natijalarini baholash mezon

Imtixon suhbat shaklida o'tkaziladi hamda suhbat natijasi o'tdi yoki o'tmadi shaklida baholanadi.

Imtixon komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Imtixon komissiyasi faoliyati 2026/2027 o'quv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Biologiya fanidan sinovlar mavjud barcha turdagi ta'lim yo'nalishlar bo'yicha imtixon komissiyasi tarkibi odatda uch nafar a'zodan kam bo'lmagan holda tashkil etiladi.

Imtixon natijalari uch kun muddatdan kechiktirilmagan holda e'lon qilinadi.

Biologiya fanidan sinovlar mavjud barcha turdagi ta'lim yo'nalishlar bo'yicha imtixon natijalaridan norozi abituriyentlarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha appelatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Appelyatsiya komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Appelyatsiya komissiyasi imtixonni o'tkazgan oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Abituriyent imtixon natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab, 24 soat ichida appelyatsiya komissiyasiga og'zaki yoki yozma shaklda murojaat etishi shart. Belgilangan muddatdan keyin murojaatlar qabul qilinmaydi.

Appelyatsiya komissiyasi abituriyentning faqat o'zining ishi bo'yicha bildirilgan murojaatini yuzma-yuz abituriyentning ishtirokida ko'rib chiqadi va yakuniy qarorni beradi.

Qabul komissiyasi mas'ul kotibi

Z.Raxmonov

SAVOLLAR

1. Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta'minot mohiyati.
2. Ijtimoiy ishning mohiyati va o'ziga xos xususiyati.
3. Ijtimoiy ishning nazariy asoslari.
4. Ijtimoiy ishning odob va ahloq muammolari.
5. Ijtimoiy ishning yo'nalishlari. Ijtimoiy ishchining funksiyalari va roli.
6. Zamonaviy dunyoda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash modellari.
7. Salomatlik va nogironlik.
8. O'zbekistonda ijtimoiy ishning rivojlanishi.
9. Ijtimoiy ish kasbiy faoliyat shakli sifatida.
10. Ijtimoiy ishning zamonaviy holati: turlar va modellar xilma xilligi.
11. Filantropiya g'oyasi birinchi bo'lib qayerda vujudga kelgan.
12. Ijtimoiy ishga kirish fanini boshqa fanlarga alqadorligini izohlab bering.
13. Ijtimoiy yordam, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya tushunchalarini farqlab bering
14. Ijtimoiy ish fan, ijtimoiy ish kasb, ijtimoiy ish faoliyat turi deganda nimani tushunasiz.
15. Ijtimoiy ish tushunchasini qanday ta'riflarini bilasiz.
16. Ijtimoiy ishga kirish fanini maqsadi, vazifasi, obyekti va predmeti.
17. Bugungi kungda ijtimoiy sohadagi mavjud muommolarni izohlab bering
18. O'zbekistonda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan qanday islohatlarni bilasiz.
19. Ijtimoiy ishning qanday xalqaro ta'riflari mavjud.
20. Ijtimoiy ish nazariyasining asosiy turlari
21. M.E.Richmondning ijtimoiy ishning rivojlanishdagi hissasi.
22. Ijtimoiy ishchilar maktablarining vujudga kelishi va rivojlanishi.
23. Bismark modelining mohiyati va mazmuni.
24. Beverij modelining mohiyati va mazmuni.